# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus son (6-jild)

2026

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V6SI1Y2026

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ S/1 (6) – 2026***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o‘g‘li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo‘limi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O‘ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo‘raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G‘aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo‘min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O‘roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko‘chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G‘aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog‘ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
6-jild, 1-maxsus son (yanvar, 2026). - 401 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович*
«НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ ................................ 11-17

*Esanova Nilufar*
O‘ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O‘RTASIDA OG‘IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI ................................ 18-21

*Muminov Azizbek Ziyoviddinovich*
JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKTLARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHIYATI ................................ 22-27

*Ne’matov Xumoyun To‘lqin o‘g‘li*
SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O`RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI ........ 28-33

*Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o‘g‘li*
THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933 ................................ 34-43

*Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна*
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.) ................................ 44-48

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi*
DAVLAT TIBBIY SUG‘URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ................................ 49-56

*Abdullayev Abdulla Fayzulla o‘g‘li*
AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO‘P OMILLI EKONOMETRIK MODELI: OLS VA ARDL TAQQOSLASH ................................ 57-64

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Tashanov Abduxoliq*
BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI ..................... 65-71

*Jo‘rayev Ahmad Muhammadiyevich*
TASAVVUF TA’LIMOTIDA DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI ................................ 72-78

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*
TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA ................................ 79-84

*Ibraximova Dilorom Saloydinovna*
RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI ................................ 85-88

*Muxammadiyeva Oliya Narzullayevna*
OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI ................................ 89-92

*Matchanova Barno*
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:
MAZMUN-MOHIYATI VA IJTIMOIY FUNKSIYALARI ........ 93-98

*Uraqov Nodirbek Boboqulovich*
BAGʻRIKENGLIK GʻOYASINING TASAVVUFIY-FALSAFIY TAHLILI
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida) ........ 99-104

*Raxmatov Alisher Obidovich*
IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 105-108

*Oʻsarkulov Oybek Murodilovich*
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIY INTEGRATSIYA:
OʻZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI ........ 109-115

*Fayziyev Xurshid Jumayevich*
VOLTERNING "BAGʻRIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI ........ 116-121

*Shadmonova Zebiniso Amrulloyevna*
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOIY MUHITI VA JAMIYAT
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA ........ 122-126

*Idiboyev Abror Jamolovich*
JAMIYAT IJTIMOIY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR
HUQUQIY TARBIYASINING OʻRNI ........ 127-130

*Ahmadjonov Toʻlqinbek Akramjon oʻgʻli*
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI ........ 131-136

*Sodiqov Islombek Otabek oʻgʻli*
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 137-141

*Abdurahimov Ravshanbek Oʻktam oʻgʻli*
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI ........ 142-146

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi*
INGLIZ VA OʻZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI ........ 147-151

*Зикруллаева Хусния Бахтияровна*
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ ........ 152-156

*Turdiyeva Dilorom Soliyevna*
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING ........ 157-162

*Eshmuratov Umidjon Temurovich*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ........ 163-167

*Avlayeva Saida Bozorovna*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR ........ 168-172

*Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi*
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING
STRUKTURASI ........ 173-181

*Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna*
ASSOTSIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA ........ 182-187

*Xudayberganov Nizomaddin Uktambay oʻgʻli, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi*
OʻZBEK TILIDA SON VA SIFAT SOʻZ TURKUMLARINI POS TEGLASH ASOSIDA OʻQITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI ........ 188-193

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Абдуллаева Дильдора Эльмурадовна*
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ ........ 194-198

*Fayzullayeva Shaxlo Jumaniyoz qizi*
THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE ........ 199-204

*Qalandarov Aminjon Amondullayevich*
KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI ........ 205-212

*Uralov Sarbon Sardorovich*
JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI ........ 213-218

*Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin oʻgʻli*
KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI ........ 219-225

*Dilboboyev Nozimbek*
XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI OʻRNI VA AHAMIYATI ........ 226-232

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh oʻgʻli*
ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI ........ 233-240

*Asadov Shahriddin Faxriddin oʻgʻli*
FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA ........ 241-243

*Абдужаппоров Шаҳбоз Музаффар ўғли*
НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ........ 244-253

*Хасанов Турсунпулат Шавкатжон угли*
МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ ........ 254-259

*Kadirova Moxigul Xamitovna*
ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI ........ 260-262

*Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna*
UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK GʻOYASINING MAʼNAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (Oʻzbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida) ........ 263-269

*Shagilov Pulatbek Koptleuovich*
JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI
KURASHISH BOʻYICHA ILGʻOR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI ...... 270-276

*Kubaeva Ismigul Farkhod qizi*
PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL
E-COMMERCE:THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE ................. 277-283

*Нормуродова Азиза Азимжон кизи*
ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ:
ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ............ 284-295

*Toshpoʻlatov Islom Otavulla oʻgʻli*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MAʼNAVIY-
MAʼRIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TAʼSIRI .......................... 296-301

*Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна*
ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО
ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ........................................................................................ 302-307

*Lutfullayeva Feruza Boboqulovna*
HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI ...... 308-312

*Abdugaffarov Davronbek Dilshod oʻgʻli*
SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI:
OʻZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK
MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.............................................................................................. 313-317

*Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich*
INSON AʼZOLARI VA TOʻQIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI:
JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL ..................................................................................... 318-329

*Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil oʻgʻli*
MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI..... 330-337

Karimov Ulugbek Xakimdjonovich
LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING
THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN
SECTOR OF UZBEKISTAN ............................................................................................................ 338-343

*Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon oʻgʻli*
MASHINALI OʻQITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH,
MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH........................................................................ 344-349

*Utebaev Salamat Maqsetbay oʻgʻli, Dauletbaeva Aynur Baxramovna*
OILAGA QARSHI JINOYATLARNING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI
VA ULARNING OLDINI OLISH......................................................................................................... 350-354

*Tillayev Ikrom Rustamjonovich*
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI
UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI ............................................................. 355-362

*Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi*
OʻZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI....... 363-366

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi
BOʻLAJAK OʻQITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TAʼLIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH .................................. 367-371

*Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi*
KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA............. 372-380

*Таджиходжаева Эльвира Рашидовна*
ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ........ 381-387

*Ravshanova Gulnoza Burxonovna*
5-SINF OʻQUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KOʻRSATKICHLARINI OʻRGANISH BOʻYICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.................... 388-393

*Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna*
THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS ........................................................................................ 394-400

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 6 | Special Issue 1 | 2026
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 03 January 2026
**Accepted:** 17 January 2026
**Published:** 30 January 2026

*Article / Original Paper*

# IMPROVING THE TEACHING METHODOLOGY OF NUMERAL AND ADJECTIVE WORD CLASSES IN UZBEK LANGUAGE BASED ON POS TAGGING

**Khudaiberganov Nizomaddin Uktambay oglu**
Teacher of the Department of Computer Linguistics and Digital Technologies, Tashkent State University of Languages and Literature

**Mansurova Shakhinabonu Najmiddin qizi**
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
2nd year master's student, Computer Linguistics

**Abstract.** This study analyzes the pedagogical possibilities of using POS (Part-of-Speech) tagging in teaching numerals and adjectives in Uzbek language lessons. The aim of the research is to develop a POS-tagging methodology to effectively explain the grammatical features of numerals and adjectives to learners and ensure their correct application in texts.

Within the scope of the study, a text corpus was prepared using POS-tagging tools, and learners' grammatical errors and comprehension levels were assessed through pre-test and post-test methods. The methodology includes integrating automatic tagging tools with manual verification. The results of the experiment indicate that teaching numerals and adjectives based on POS tagging is more effective than traditional methods and significantly enhances learners' metalinguistic awareness and their ability to identify errors.

The thesis provides practical recommendations such as interactive lessons, digital exercises, and error analysis. Based on the research findings, a practical guide for teachers and educational institutions on teaching numerals and adjectives using POS tagging has been developed.

**Keywords:** Uzbek language, numeral, adjective, POS tagging, pedagogical methodology, grammatical understanding.

# O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

**Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li**
ToshDO'TAU Kompyuter lingvistikasi va
raqamli texnologiyalar kafedrasi o'qituvchisi
http://www.orcid.org/0000-0002-6213-3015
E-mail: nizomaddin@navoiy-uni.uz

**Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
kompyuter lingvistikasi yo'nalishi 2-kurs magistranti
E-mail: tiladabiyot@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda o'zbek tili darslarida son va sifatlarni o'rgatishda POS (Part-of-Speech) teglashning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – o'quvchilarga son va sifatlarning grammatik xususiyatlarini samarali tushuntirish va ularni matnda to'g'ri qo'llashni ta'minlash uchun POS-teglash metodikasini ishlab chiqishdir.

Tadqiqot doirasida POS-teglash vositalaridan foydalangan holda matn bazasi tayyorlandi va oʻquvchilarning grammatik xatolari hamda tushunish darajasi pre-test va post-test usullari orqali baholandi. Metodologiya avtomatik teglash vositalari bilan qoʻlda tekshirishni integratsiyalashni oʻz ichiga oladi. Tajriba natijalari shuni koʻrsatdiki, POS-teglash asosida son va sifatlarni oʻrgatish an’anaviy metodlarga nisbatan samaradorligi yuqoriroq boʻlib, oʻquvchilarning metalingvistik ongini rivojlantirish va xatolarni aniqlash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.
Maqolada interaktiv darslar, raqamli mashqlar va xatolar tahlili kabi amaliy tavsiyalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari asosida oʻqituvchilar va ta’lim muassasalari uchun POS-teglash asosida son va sifatlarni oʻrgatish boʻyicha amaliy yoʻriqnoma ishlab chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** oʻzbek tili, son, sifat, POS-teglash, pedagogik metodika, grammatik tushunish.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N31

**Kirish**. Oʻzbek tili darslarida son va sifatlarni oʻrgatish oʻquvchilar uchun qiziqarli boʻlishi bilan birga, murakkab pedagogik jarayonlardan biridir. Bu soʻz turkumlari oʻzining morfologik va sintaktik xususiyatlari, turli shakllari va kontekstga bogʻliqligi bilan ajralib turadi. An’anaviy metodlar koʻpincha faqat grammatik qoidalarni yodlatish va misol orqali tushuntirishga asoslangan boʻlib, oʻquvchilarning metalingvistik ongini yetarlicha rivojlantira olmaydi va xatolarni aniqlashda samaradorligi past boʻladi. Shu sababli, son va sifatlarni oʻrgatishda innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj mavjud.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Soʻnggi yillarda tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalarida POS (Part-of-Speech) teglash texnologiyalari keng qoʻllanilmoqda [1(Manning et al., 2014; Jurafsky & Martin, 2021)]. POS-teglash yordamida matndagi soʻzlar oʻz turkumiga qarab avtomatik belgilanishi, ularning sintaktik va morfologik xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu oʻquvchilarga son va sifatlarni tushunish va ishlatish jarayonini soddalashtirishga, grammatik xatolarni tezkor aniqlash imkonini yaratadi [2 Kudryavtsev, 2017; Xolmatov, 2020]. Shu bilan birga, POS-teglash interaktiv darslar, raqamli mashqlar va xatolar tahlili orqali oʻquvchilarning faol ishtirokini ta’minlash

Ushbu tadqiqotning maqsadi – oʻzbek tili darslarida son va sifatlarni POS-teglash yordamida oʻrgatish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat(1-rasm).




1-rasm. POS teglash vazifalari.

**POS teglash** (Parts-of-Speech tagging) — bu matndagi har bir soʻzni uning **soʻz turkumi** boʻyicha aniqlab belgilash jarayonidir.

**Muhokama va natijalar.** Bu jarayon tilshunoslikda hamda kompyuter lingvistikasi (NLP)da tilni aniqlash, tahlil qilish va avtomatlashtirish uchun asosiy qadam hisoblanadi. POS teglash soʻzning morfologik-sintaktik xususiyatlariga qarab unga teg (masalan, Num — son, Adj — sifat) berishni anglatadi. Matndagi har bir soʻzning toʻgʻri **soʻz turkumini** aniqlab, unga *grammatik teg (label)* biriktirishdir. Masalan: "kitob" — ot, "yaxshi" — sifat, "uch"— son. Oʻquvchilarda tilshunoslik fikrini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib kelmoqda. Soʻz turkumlarini toʻgʻri ajratib, grammatik savollarga javob topish koʻnikmasini yaratish. POS teglash jarayoni til materialini chuqur lingvistik tahlil qilishni talab qiladi. Oʻzbek tilida bu jarayon murakkab, chunki til agglyutinasiyaga ega boʻlib, soʻz shakllari koʻplab qoʻshimchalarga bogʻliq. Shuning uchun soʻz turkumini aniqlashda nafaqat leksik, balki morfologik va sintaktik kontekstlar ham hisobga olinadi [3 Mansurova, Shaxinabonu. "SON SO 'Z TURKUMINI GRAMMATIK POS TEGLASHNING LINGVISTIK MODELLARI. " *Uzbekistan: Language and Culture* 2.2 (2024)]. POS-teglash jarayonida sonlar NUM tegi bilan belgilanadi. Biroq oʻzbek tilida sonlar turli grammatik shakllarda qoʻllanilishi sababli ularni avtomatik aniqlash murakkab hisoblanadi. Sonlarni POS teglashda qator muammolarga duch kelishimiz mumkin. Quyidagi shulardan bir nechtasini misol tariqasida keltirib oʻtamiz. Sonlar otlashganda gapdagi sintaktik vazifasi oʻzgaradi va teglanganda NUM sifatida nomlanadi. Masalan: Bu *ikkisi* kechikdi. Ushbu gapda ikki son soʻz turkumiga oid birlik boʻlib, sintaktik jihatdan ega vazifasida kelmoqda ammo POS jihatdan NUM boʻlib qoladi. POS teglash — bu matndagi har bir soʻzga uning grammatik toifasini (masalan ot, feʼl, sifat) belgilangan tag bilan belgilash jarayonidir. Grammatik teglar soʻzning funksiyasini va sintaktik rolini aniqlashga yordam beradi, bu esa tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va lingvistik tahlilda muhimdir. POS teglash yordamida soʻzlarning morfologik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Amaliy NLP tizimlarida sifatlarni notoʻgʻri teglash bir qator yuqori darajali vazifalarda muammolarga olib keladi. Masalan, avtomatik tarjimada sifat notoʻgʻri aniqlansa, tarjima tilida otga nisbatan kelishuv buziladi. Axborotni ajratib olishda esa "katta korxona" iborasidagi "katta" sifati tushib qolsa, obyektning muhim xususiyati yoʻqoladi. Shuningdek, savol-javob tizimlarida "eng muhim muammo" iborasida "eng muhim" konstruksiyasining buzilishi javobning aniqligini pasaytiradi. Statistik jihatdan qaralganda, sifatlar boshqa soʻz turkumlariga nisbatan koʻproq adashiladi, chunki ular ravish, ot va feʼl bilan formal jihatdan oʻxshash shakllarga ega boʻlishi mumkin. Masalan, "tez" soʻzi "tez mashina"da sifat, "tez yugurdi"da ravish, "tez yordam"da esa otlashgan birlik sifatida chiqadi[4 Sharipov, Maksud, et al. "UzbekTagger: The rule-based POS tagger for Uzbek 'language." *arXiv preprint arXiv:2301.12711* (2023)].

Shuning uchun sifatlar uchun alohida baholash koʻrsatkichlari — precision, recall va F1 alohida hisoblanishi kerak. Daraja kategoriyasi (qisq. OK) «sifatda belgi darajasi» UG Msiga ega. Daraja turli (geterogen) shakl yordamida hosil qilinadi: (chiroyli) — (chiroyliroq) — (juda chiroyli). Asliy sifatda belgining darajasini ifodalashga koʻra uch daraja ajratiladi: a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma daraja. Oddiy daraja hech qanday vositasiz yuzaga chiqadi. Unda OK UGMsi «belgining oltiq-kamligiga munosabat bildirmaslik») tarzida yuzaga chiqadi: (yaxshi) , (qattiq), (semiz) , (keng), (baland), (to 'gʻri). (yumshoq) kabi. Orttirma daraja belgining meʼyoriy holatdan ortiqligi, kuchliligini ifodalab, OK UGMsini «belgining meʼyordan ortiqligini ifodalash,) tarzida xususiylashtiradi. Orttirma daraja maxsus morfologik shaklga ega

emas. OK ifodalovchisining geterogenligi ushbu darajada yaqqol koʻzga tashlanadi. Orttirma daraja quyidagi usullar bilan hosil qilinadi: 1.Fonetik usul. Uning bir necha koʻrinishi bor: a) (qop-qora) , (yap-yapaloq), (dum-dumaloq); b) urgʻuli tovushning choʻzilishi: (u ʼzun), (bala ʼnd), (chiro ʼyll). 2. Leksik usul: (juda kuchlL) , (gʻoyatda qoʻrqinchli), (nihoyatda baland). Belgining ortiq darajasi analitik shaklda ham ifodalanadi. Bu shakl ikki uzvli, birinchi uzvini chiqish kelishigi shaklida qoʻlIash orqali hosil qilinadi: (uzundan uzoq), (shirindan shirin). Ozaytirma daraja OK UGMsini «belgining meʼyordan kamligini ifodalash,) koʻrinishida xususiylashtiradi. Bu maʼno ikki usul bilan yuzaga chiqadi: I. Leksik usul: (sal durust), (bir oz yaxshi), (xiyolochiq). 2. Morfologik usul: (kattaroq), (ko ʼproq), (ozroq). Eslatma. Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatda qoʻlIanuvchi [-(i)sh],[ -(i)mtir] affikslari beIgining kuchsiz darajasini bildirmaydi.[5. Bobojonova, L., Axundjanova, A., Ostheimer, PS, & Fellenz, S. (2025, yanvar). BBPOS: Oʻzbek tili uchun BERT asosidagi nutq qismlarini teglash. *Kam manbali tillar uchun til modellari boʻyicha birinchi seminar materiallarida* ( 287-293-betlar)].

Masalan, (oqish) soʻzi oq rangning, (qoramtir) soʻzi qora rangning kuchsiz darajasi emas, balki oq, qora boʻlmagan, ularga oʻxshash boʻlgan rang turlari.

Sifatni teglash umumiy grammatik maʼnoni belgilashdan boshlanadi. Sifat belgining xususiyatini ifodalashiga koʻra ikkiga boʻlingan: 1) asliy sifat; 2) nisbiy sifat. Sifat turkumida sintaktik kategoriya keng boʻlmagan voqelanishga ega. Sifat turkumi egalik kategoriyasi UGMsini “keyingi sifatni oldingi soʻzga bogʻlash, mansublik, xoslik maʼnosini ifodalash” tarzida xususiylashtiradi. Kesimlik kategoriyasi esa sifat turkumida oʻz mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. Koʻp hollarda sifat turkumida kesimlik kategoriyasi bogʻlama vositasida yuzaga chiqadi.

Tadqiqot natijalari lingvistik kompetensiyani rivojlantirish va oʻquvchilarning metalingvistik ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega boʻladi. Shu bilan birga, POS-teglash asosidagi metodika anʼanaviy yondashuvlarni toʻldirib, raqamli va interaktiv resurslardan foydalangan holda oʻquv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Sifatni teglashdagi muammolar — tilshunoslik, taʼlim va texnologik (NLP) sohalar uchun ham dolzarb masala. Agar til foydalanuvchilari, mutaxassislar va texnologiya mutaxassislari birgalikda ishlasa, bu muammolarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Shu asosda, maqola tavsiyalar boʻyicha amaliy qadamlar taklif etadi va kelajakda faol tadqiqotlar olib borish zarurligini koʻrsatadi. Shunday soʻzlar borki, ular ikki turkum doirasida omonimlik hosil qiladi va avtomatik teglash jarayonida muammolarni yuzaga chiqaradi. Masalan: Yosh oʻqituvchi dars bermoqda, bu yerda *“yosh”*— sifat (qanday oʻqituvchi?). Yosh oʻzini sezdiradi, bu yerda *“yosh*”— ot (nima seziladi? yosh).(1-jadval).

| T/r | So'zlar | Sifatda ishlatilishi | Otda ishlatilishi |
|---|---|---|---|
| 1 | *Keksa* | Keksa ayol- qarigan | Keksa-katta yoshdagi odam |
| 2 | *Kasal* | Kasal bola-betob | Kasal-bemor inson |
| 3 | *Boy* | Boy odam-mol-dunyosi ko'p | Boy-badavlat inson |
| 4 | *Yaxshi* | Yaxshi gap-chiroyli | Yaxshi-yaxshilik timsoli |
| 5 | *Yomon* | Yomon odat-salbiy | Yomon-salbiylik ifodasi |
| 6 | *Jasur* | Jasur yigir-qo'rqmas | Jasur- jasoratli odam |
| 7 | *Donishmand* | Donishmand-aqlli | Donishmand-dono inson |
| 8 | *Aqlli* | Aqlli-xususiyat sifati | Aqlli-otlashganda |
| 9 | *Yosh* | Yosh-xususiyat sifati | Yosh-otlashganda |
| 10 | *Mehribon* | Mehribon-xususiyat sifati | Mehribon-ism ma'nosida |

*1-jadval omonim so'zlar*

Ba'zan bir so'z bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq turli ma'nolarni ifodalashi mumkin, bu esa gapda leksik noaniqlik (omonimlik yoki polisemiya) hosil qilib, so'zning ma'nosini faqat kontekst orqali aniqlashni talab qiladi. Masalan: Ana, keksa qayrag'och, uning tunuka tom ustiga engashgan azamat shoxi qurib qolibdi. Bu jumlasida *keksa* so'zi predmetning xususiyatini bildiruvchisi sifatida ishlatilgan. Boshqa tomondan, *Keksalar o'g'iti* misolida esa *keksalar* so'zi to'g'ridan-to'g'ri ot sifatida — bu yerda inson yoshiga nisbatan nom — vazifasini bajaryapti. Bu holat tilshunoslikda bir xil shakldagi so'zlarning turli kontekstlarda turli so'z turkumiga mansub bo'lishi, ya'ni leksik omonimlik yoki polisemiya hodisasi sifatida qaraladi, va uni aniqlashda kontekstga e'tibor qaratish zarur. Masalan, *Biror yomon xabar bo'lsa, bizga ham aytishardi* jumlasida *yomon* so'zi *xabar* lemmasiga bog'lanib, uning salbiy belgisini bildiruvchi sifat sifatida ishlaydi va gap tuzilishida predmetning xususiyatini aniqlovchi leksik-grammatik funksiya bajaradi.[6. Eshankulova Shohista Xayitmuratovna "ONA TILI DARSLARIDA SO'Z TURKUMLARI MAVZUNI O'QITISHDA ZAMONAVIY O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH".]

Boshqa tomondan, *Hech qayerim jiddiy lat yemagan bo'lsa ham, o'zimni yomon his qildim* misolida esa *yomon* so'zi *his qildim* fe'liga sintaktik tarzda bog'lanib, subyektning holat-hissiyotini ifodalovchi grammatik hol (predikativ sifat) vazifasini bajaradi. Shu sababli, bir xil so'z shakli grammatik kontekstga qarab turli sintaktik va semantik rollarga ega bo'lib, u o'zbek tilining leksik-morfologik xususiyatlarini aks ettiradi. Adjektivlar odatda otni aniqlovchi funksiya bilan keladi, biroq ular ba'zan fe'l bilan birikib predikativ (gapdagi hol) vazifasini ham bajara oladi, bu esa sifat so'z turkumining kengaytirilgan sintaktik funksiyalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqotda POS (Part-of-Speech) teglashning o'zbek tili darslarida son va sifatlarni o'rgatishda pedagogik samaradorligi batafsil o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, POS-teglash vositalaridan foydalangan holda tashkil etilgan darslar an'anaviy metodikalarga nisbatan o'quvchilarning grammatik tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, o'quvchilar matndagi son va sifatlarni aniqlash hamda ularning sintaktik funksiyalarini to'g'ri tushunish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishdilar.

POS-teglashni qo'llash orqali o'quvchi metalingvistik ongini rivojlantiradi va xatolarni mustaqil aniqlash qobiliyati yaxshilanadi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan matn bazasi va testlar orqali olingan natijalar pedagogik metodikaning samaradorligini ilmiy asosda

tasdiqladi. Shuningdek, interaktiv darslar, raqamli mashqlar va xatolar tahlili kabi amaliy tavsiyalar oʻquv jarayonini yanada qiziqarli va natijali qiladi.

Yuqoridagi yondashuv asosida tayyorlangan amaliy yoʻriqnoma oʻqituvchilarga dars jarayonida POS-teglash metodikasini samarali joriy etishga xizmat qiladi. Kelajakda mazkur metodikaning boshqa grammatik toifalar — ot, fe’l, olmosh va boshqalar bilan qoʻllanilishi hamda raqamli didaktik materiallar bilan boyitilishi tavsiya etiladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Manning et al., 2014; Jurafsky & Martin
2. Kudryavtsev, 2017; Xolmatov, 2020
3. Mansurova, Shaxinabonu. "SON SO ‘Z TURKUMINI GRAMMATIK POS TEGLASHNING LINGVISTIK MODELLARI." *Uzbekistan: Language and Culture* 2.2 (2024).
4. Sharipov, Maksud, et al. "UzbekTagger: The rule-based POS tagger for Uzbek ‘language." *arXiv preprint arXiv:2301.12711* (2023).
5. Bobojonova, L., Axundjanova, A., Ostheimer, PS, & Fellenz, S. (2025, yanvar). BBPOS: Oʻzbek tili uchun BERT asosidagi nutq qismlarini teglash. *Kam manbali tillar uchun til modellari boʻyicha birinchi seminar materiallarida* ( 287-293-betlar).
6. Eshankulova Shohista Xayitmuratovna “ONA TILI DARSLARIDA SOʻZ TURKUMLARI MAVZUNI O`QITISHDA ZAMONAVIY O`QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH”.
7. SON SOʻZ TURKUMINI OʻQITISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR. (2025). *Modern Education and Development*, *27*(3), 59-63.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ S/1 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).